

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

11-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ S/11 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI*Rahmankulova Adolat Xushbakovna*

ПРОБЛЕМЫ РЕАБИЛИТАЦИИ НАСИЛЬСТВЕННО ПЕРЕСЕЛЕННЫХ НАРОДОВ

В УЗБЕКИСТАН В 1930 – 1940-е ГОДЫ..... 11-19

Назирхожаев Мухаммадалихожа Касимхожаевич

ФОРМИРОВАНИЕ И ОРГАНИЗАЦИЯ ЛАГЕРЕЙ ДЛЯ СОДЕРЖАНИЯ ЯПОНСКИХ

ВОЕННОПЛЕННЫХ В СОВЕТСКОМ СОЮЗЕ..... 20-29

Kaypova Malika Dautbay qizi

MUSTAQILLIQ YILLARIDA TURIZM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR..... 30-33

Sobirova Dilfuza, Mirzaaxmedov Xabibullo, Odiljonov Xayitali

QO'QON XONLIGINING DIPLOMATIK ALOQALARI 34-39

Raupova Mushtariybegim Ilxomjon qizi

TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGINING MA'MURIY-HUDUDIIY BOSHQARUVI

TARIXSHUNOSLIGI 40-47

Сапарбаев Бунёд Хуррамбек оглы

ДИПЛОМАТИЯ И ТОРГОВЛЯ НА ПЕРИФЕРИИ ИМПЕРИЙ: ВЗАИМООТНОШЕНИЯ

ХИВИНСКОГО ХАНСТВА И РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ

МУХАММАД РАХИМХАНА I (1806–1825) 48-54

Рузибоев Самандарбек, Ахмадбекова Ўғилой

НАУЧНО-ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЯ АБУ РАЙХОНА БЕРУНИ

«АЛ-АСАР АЛЬ-БАКИЯ»: МЕТОДОЛОГИЯ, ИСТОЧНИКИ И КУЛЬТУРНО-

ХРОНОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗЗРЕНИЯ 55-64

Tilovov Mirqosim Amanturdiyevich

OLTINSOY TUMANI ARXEOLOGIK XARITASI 65-70

Shamshidinov Baxriddin Sharobiddin o'g'li

O'ZBEKISTONDA NEFT VA GAZ SANOATI TARIXI (1900-1950 YILLAR) 71-76

Abdurasulov Akmaljon

TURKISTONDA MATBAACHILIKNING VUJUDGA KELISHIDAGI HAMKORLIK

ALOQALARI TARIXI..... 77-86

Abatov Aydos

QORAQALPOG'ISTONDA SANOATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH

BOSQICHLARI (XX ASR II YARMI) 87-90

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI*Pirmatova Farangiz Ma'rufjonovna*

THE EFFECTS OF GREEN ECONOMY IMPLEMENTATION ON ECONOMIC GROWTH

IN DEVELOPING COUNTRIES..... 91-99

Jumabayev Adilbek Bazarbayevich

WAYS TO INCREASE THE EFFICIENCY OF REGIONAL ECONOMIC POTENTIAL 100-107

<i>Jaxbarov Jamshidbek Tilavoldi o'g'li</i> BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY NAZORATNI RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI TAKOMILLASHTIRISH	108-114
<i>Fayzieva Dilyora Shamsitdin kizi,</i> INSTITUTIONAL PRISM OF DIGITAL DIVIDENDS: THE IMPACT OF HUMAN CAPITAL AND "ANALOG COMPLEMENTS" ON THE DYNAMICS OF SOCIO-ECONOMIC INEQUALITY.....	115-123
<i>Турдыев Гайрат Ялгашевич</i> РАЗВИТИЕ АВТОКОЛОНИ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ В УСЛОВИЯХ ТРАНСПОРТНЫХ РЕФОРМ: ИСТОРИЧЕСКИЙ И СОВРЕМЕННЫЙ ЭТАПЫ.....	124-129
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Xolmirzaev Nodirjon Nizomjonovich</i> SHAHAR AHOLISINING IJTIMOIIY MUAMMOLARINING IJTIMOIIY FALSAFIY TAHLILI ..	130-134
<i>Kenjayeva Dilrabo Rominovna</i> INSONIYAT TARIXI VA DINIY BAG'RIKENGLIK	135-139
<i>Karimov Raxmat Raxmanovich</i> СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ МЕЖЦИВИЛИЗАЦИОННОЙ ФИЛОСОФИИ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ	140-146
<i>Ergashev Urolbek Berkinovich</i> NAZARIY FALSAFANI TASNIFLASHDA AHMAD TOSHKO'PRIZODA YONDASHUVI.....	147-151
<i>Raximdjanova Dilnavoz Sunnat qizi</i> IBN RUSHDNING TAFAKKUR ERKINLIGI HAQIDAGI QARASHLARI.....	152-155
<i>Abdunazarov Lutfillo Mamanovich</i> YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA URBANIZATSIYA JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZARURATI	156-160
<i>Tangirov Nizom Abduraxmonovich</i> NOOSFERA VA BARQAROR RIVOJLANISH PARADIGMASINING FALSAFIY-METODOLOGIK ASOSLARI	161-166
<i>Yusupova Nargiza Ro'stamovna</i> O'ZBEK ETNOMUSIQASIGA OID TARIXIY MANBA VA MUTAFAKKIRLAR ETNOMUSIQA BORASIDAGI QARASHLARINING FALSAFIY TAHLILI.....	167-172
<i>Xudoykulov Azamat Beshumovich</i> MA'NAVIY BARKAMOL YOSHLAR DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA G'OYAVIY TARBIYANING O'RNI	173-177
<i>Xamdamov Behzod</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR DUNYOQARASHIDA VATANPARVARLIK G'OYALARINING FALSAFIY-TARIXIY ASOSLARI	178-185
<i>Bekchanov Sanjar Ibragimovich</i> "MODERNIZATSIYA" TUSHUNCHASINING IJTIMOIIY-FALSAFIY MOHIYATI: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA MILLIY KONSEPSIYALAR.....	186-190
<i>Adizov Azim Tolibovich</i> IJTIMOIIY KONFRONTATSIYANING TUZILISHI VA DINAMIKASI.....	191-196

<i>Eshmurodov Nabillo</i> GLOBALLASHUV JARAYONIDA SHAXS MA'NAVİYATINING TRANSFORMATSIYASI VA BEGONALASHUV MUAMMOSI	197-201
<i>Yokubov Suxrob Firdavsovi</i> TASAVVUF TA'LIMOTINING G'OYAVIY MANBALARI	202-206
<i>Najimidinova Dilnoza Gulomjonovna</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEK MILLIY OILASINING IJTIMOIY-FALSAFIY MASALALARI	207-210
<i>Otokulov Abror Sobirkulovich</i> JAMIYATDA MA'NAVIY-AXLOQIYLIKNI YUKSALTIRISHDA SHAXS MAS'ULIYATINI OSHIRISH OMILI	211-217

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Maxamadaliyeva Zuxra Baxrom qizi, Adilova Nasiba Raximboy qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MADANIY METAFORALARNING MOHIYATI	218-222
<i>Xusainova Zilola Yuldashevna, Yangibayeva Surayyo Gulumboyevna</i> DIAXRON KORPUS ALGORITMLARI	223-228
<i>Ruzibayeva Aziza Kahramanovna</i> POLITICAL EXILE AND PERSONAL IDENTITY IN LORD BYRON'S LIFE AND WORK	229-233
<i>Karimova Ozodaxon Avazxon qizi</i> A LINGUO-PRAGMATIC STUDY OF INFORMAL SPEECH IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES: COMPARATIVE ANALYSIS OF COMMUNICATIVE STRATEGIES, SOCIOCULTURAL CONTEXTS, AND PRAGMATIC FUNCTIONS	234-240
<i>Айтмуратова Турсынай Маратовна</i> КОНЦЕПТ «ТРУД» В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОМ АСПЕКТЕ	241-244
<i>Fayzullayeva Zebuniso Abdukarimovna</i> KONYUNKTIVNING SEMANTIK-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI	245-248
<i>Sodikova Vasilakhon, Gavharoy Isroiljon qizi</i> THE ISSUES OF INFORMATION SECURITY AND RELIABILITY IN MODERN JOURNALISM	249-258
<i>Холикова Замира</i> СРАВНИТЕЛЬНО-СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ С КОМПОНЕНТОМ-ЗООНИМОМ «СОБАКА» В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ	259-272

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Турсунова Маликахон Улугбековна</i> СООТНОШЕНИЕ ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ РАНГОВ С КВАЛИФИКАЦИОННЫМИ КЛАССАМИ ДОЛЖНОСТЕЙ ГОСУДАРСТВЕННОЙ СЛУЖБЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ЗНАЧЕНИЯ КЛАССОВ И РАНГОВ В ДИПЛОМАТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	273-286
<i>Karaketova Dilnoza Yuldashevna</i> JINOYAT SUBYEKTINI TAVSIFLOVCHI BELGI SIFATIDA RETSIDIV	287-294
<i>Мируктамова Феруза Лутфуллаевна</i> ПРАКТИКА ЗАРУБЕЖНЫХ ГОСУДАРСТВ ПО ЗАЩИТЕ ПРАВ И БЕЗОПАСНОСТИ ДЕТЕЙ ОТ ИНФОРМАЦИОННЫХ УГРОЗ	295-300

<i>Xodjiev Yunus Muxitdinovich</i> MULK HUQUQIDAN VOZ KECHISHNING AYRIM MASALALARI.....	301-309
<i>Akayeva Marapat Abduxalikovna</i> FUQAROLIK HUQUQIDA ASSOSSIZ BOYLIK ORTTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA ...	310-317
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ENERGETIKA SEKTORIDA ATROF-MUHITGA TA'SIRNI BAHOLASH TIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING HUQUQIY SHART-SHAROITLARI.....	318-326
<i>Jiyenbayev Baxadir Ospanovich</i> EKOLOGIK AUDITNI HUQUQIY TA'MINLASHGA DOIR HUQUQIY NORMALARNING ILMIY VA NAZARIY MOHIYATI	327-332
<i>Шомуратова Пальмира Комил қизи</i> РЕАЛИЗАЦИЯ ПРИНЦИПА СОСТЯЗАТЕЛЬНОСТИ НА ДОСУДЕБНОЙ СТАДИИ: ПРЕДЕЛЫ, ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ УСИЛЕНИЯ	333-339
<i>Калдарбеков Асылжан Оспанович</i> РАЦИОНАЛЬНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ И ПРАВОВАЯ ОХРАНА ЗЕМЕЛЬ ЛЕСНОГО ФОНДА: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ОПЫТ КАЗАХСТАНА И УЗБЕКИСТАНА	340-351
<i>Istamova-Fayzullaeva Dilafruz Oybek qizi</i> SOMATIK HUQUQLARNING NAZARIY TALQINI: GERMANIYA VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI ASOSIDA QIYOSIY HUQUQIY TAHLIL	352-359
<i>Urakov Djaxongir Rajabovich</i> PROKURATURA ORGANLARINING YOSHLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTİKASINI AMALGA OSHIRISH BORASIDA HAMKORLIK FAOLIYATI	360-365
<i>Байтурова Ауда Набиевна</i> СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ЭКОТУРИСТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	366-373
<i>Xushvaqtov O'tkir Temirovich</i> VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGI TUSHUNCHASI NAZARIY VA QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI	374-382
<i>Mustafaqulov Dilshod Salomovich</i> NORMA IJODKORLIGI JARAYONIDA QONUNIYLIK PRINSIPI	383-389
<i>Nomazov Ixtiyor Ismailovich</i> ISBOT QILISH ELEMENTI SIFATIDA KO'RSATUVLARNI OLDINDAN MUSTAHKAMLAB QO'YISH	390-394
<i>Xoliqnazarov Farhod Bozor o'g'li</i> INTELLEKTUAL MULK HUQUQINI JINOIY-HUQUQIY HIMOYA QILISH MASALALARI ...	395-399
<i>Normuratov Aktam Tulaboy o'g'li</i> OLIY TA'LIM TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JALB QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	400-403
<i>Шомахсудов Шоакрам Шомуратович, Парахатова Шахноза Ерназаровна</i> ОСОБЕННОСТИ ПОЛУЧЕНИЯ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ КОМПЬЮТЕРНО-ТЕХНИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ ПРИ РАССЛЕДОВАНИИ КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЙ	404-411
<i>Rasulov Baxtiyor Shavkatovich</i> O'ZBEKISTONDA ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISH VA EKOLOGIK NAZORATNI KUCHALTIRISH MASALALARI.....	412-418

<i>Javlijeva Gullola Abdurahim qizi</i> IJARA MEHNATI — NOTIPIK MEHNAT MUNOSABATLARINING SHAKLI SIFATIDA.....	419-425
<i>Babaeva Irodakhon Erkinjon qizi</i> ISSUES OF IMPLEMENTING INTERNATIONAL LEGAL NORMS IN THE FIELD OF CLIMATE CHANGE INTO THE NATIONAL LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	426-434
<i>Ядгаров Шахрух</i> ЮРИДИЧЕСКАЯ ПРИРОДА ШАНХАЙСКОЙ ОРГАНИЗАЦИИ СОТРУДНИЧЕСТВА КАК СУБЪЕКТА МЕЖДУНАРОДНОГО ПРАВА.....	435-439
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li</i> FANLARARO INTEGRATSIYA ASOSIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING FIZIKA FANIDAN NOSTANDART TOPSHIRIQLARNI BAJARISH ORQALI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH.....	440-446
<i>Ismaylov Azerbay Saparniyazovich</i> SUN'IY INTELLEKTNING TA'LIMDAGI O'RNI.....	447-451
<i>Xolmirzayeva Gulbahor Baxodirovna</i> MAKTABGACHA TA'LIMDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARNI MILLIY MODEL BILAN UYG'UNLASHTIRISH MEXANIZMLARI.....	452-457
<i>Raximova Lolaxon Abduraximovna</i> TALABALARNING KLINIK QAROR QABUL QILISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA BIOFIZIK DIAGNOSTIKA TEXNOLOGIYALARINI INTEGRATIV O'QITISH METODIKASI.....	458-462
<i>Toshmamatova Munisa Toshmamatovna</i> UMUMTA'LIM FANLARIDAN DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING MAVJUD HOLATI TAHLILI.....	463-466
<i>Raximdjanova Malikaxon Gapurdjanovna, Baybabayeva Shoiraxon Ismatovna</i> INTERCULTURAL COMPETENCE AND REFLECTIVE LEARNING IN GLOBALIZED HIGHER EDUCATION: A BIBLIOMETRIC ANALYSIS.....	467-473

Received: 1 December 2025
Accepted: 15 December 2025
Published: 30 December 2025

Article / Original Paper

RECIDIVISM AS A CHARACTERISTIC FEATURE OF THE SUBJECT OF CRIME

Karaketova Dilnoza Yuldashevna,
Associate Professor at the Department of Criminal Law,
Criminology and Anti-Corruption, TSUL,
PhD in Law
E-mail: d.yu.karaketova@gmail.com

Abstract. This article is devoted to the criminal-law aspects of recidivism as a facultative feature characterizing the subject of crime. In the study, the author substantiates the necessity of recognizing the commission of a crime by a dangerous or especially dangerous recidivist as a qualifying element within the articles of the Special Part of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan. The article also explains the distinctions between recidivism, repeated offenses, and concurrence of crimes. It analyzes the socio-legal nature of recidivism, its connection with the personal characteristics of the offender, and the issues of its evaluation in judicial and investigative practice. Additionally, the norms of foreign criminal legislation concerning the concept of recidivism are examined. The author emphasizes the need to consider recidivism as a factor that increases an individual's propensity to commit crimes and the degree of social danger, arguing that recidivism should be viewed not only as an aggravating circumstance in criminal law but also as an important characteristic defining the offender's legal profile.

Keywords: recidivism, dangerous recidivist, especially dangerous recidivist, subject of crime, facultative feature, social danger, criminal law, judicial practice, comparative analysis, aggravating circumstance.

JINOYAT SUBYEKTINI TAVSIFLOVCHI BELGI SIFATIDA RETSIDIV

Karaketova Dilnoza Yuldashevna,
TDYU Jinoyat huquqi, kriminologiya
va korrupsiyaga qarshi kurashish
kafedrası dotsenti, yu.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqola jinoyat subyektini tavsiflovchi fakultativ belgi sifatida jinoyatlar retsidivining jinoyat-huquqiy jihatlariga bag'ishlangan. Muallif o'z tadqiqotida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Maxsus qismi moddalarida xavfli va o'ta xavfli retsidivist tomonidan jinoyat sodir etilganligini kvalifikatsiyaviy belgi sifatida nazarda tutishning zarurati, retsidivning takroran jinoyat sodir etish va jinoyatlar majmuidan farqlovchi jihatlarini yoritgan. Maqolada jinoyatlar retsidivining ijtimoiy-huquqiy tabiati, uning jinoyat subyektining shaxsiy xususiyatlari bilan bog'liqligi, sud-tergov amaliyotida uni baholash masalalari tahlil etilgan. Shuningdek, xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligining retsidiv tushunchasiga oid normalari o'rganilgan. Muallif jinoyatlar retsidivini shaxsning jinoyatga moyilligi va ijtimoiy xavflilik darajasini oshiruvchi omil sifatida baholash zarurligini qayd etgan va retsidiv nafaqat jinoyat huquqida javobgarlikni og'irlashtiruvchi holat sifatida, balki shaxsning huquqiy portretini ifodalovchi muhim belgi sifatida ham qaralishi lozimligi asoslab bergan.

Kalit so'zlar: retsidiv, xavfli retsidivist, o'ta xavfli retsidivist, jinoyat subyekti, fakultativ belgi, ijtimoiy xavflilik, jinoyat huquqi, sud amaliyoti, qiyosiy tahlil, javobgarlikni og'irlashtiruvchi holat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI11Y2025N42>

Jinoyat subyektini tavsiflovchi va JK Maxsus qismi normalarida ko'p uchraydigan belgilardan biri bu xavfli retsidivist va o'ta xavfli retsidivist tomonidan jinoyat sodir etilishidir.

JKning Maxsus qismi moddalarida 75 ta holatda jinoyatni xavfli retsidivist tomonidan, 29 ta holatda o'ta xavfli retsidivist tomonidan sodir etilishi kvalifikatsiyaviy belgi sifatida nazarda tutilgan bo'lib, ular quyidagilardir:

xavfli retsidivist– 97-moddasi ikkinchi qismi “r” bandi; 104-moddasi uchinchi qismi “r” bandi; 105-moddasi ikkinchi qismi “k” bandi; 118-moddasi ikkinchi qismi “b” bandi; 119-moddasi ikkinchi qismi “b” bandi; 121-moddasi to'rtinchi qismi “v” bandi; 122-moddasi ikkinchi qismi; 122¹-moddasi ikkinchi qismi “a” bandi; 126¹-moddasi beshinchi qismi “j” bandi va sakkizinchi qismi “b” bandi; 127¹-moddasi uchinchi qismi “a” bandi; 128-moddasi uchinchi qismi “a”; 129-moddasi ikkinchi qismi “d”; 130-moddasi ikkinchi qismi “a”; 130¹-moddasi ikkinchi qismi “a” bandi; 131-moddasi uchinchi qismi “b” bandi; 132-moddasi ikkinchi qismi “a” bandi; 133-moddasi ikkinchi qismi “b” bandi; 133¹-qismi ikkinchi qismi “a” bandi; 135-moddasi ikkinchi qismi “d”; 137-moddasi ikkinchi qismi “g” bandi; 139-moddasi uchinchi qismi “v” bandi; 140-moddasi uchinchi qismi “b” bandi; 141¹ -moddasi ikkinchi qismi “v” bandi; 141²-moddasi ikkinchi qismi “b” bandi; 141³-bandi ikkinchi “a” bandi; 155³-moddasi ikkinchi qismi “a” bandi; 159-qismi uchinchi qismi “a” bandi; 164-moddasi uchinchi qismi “a” bandi; 165-moddasi ikkinchi qismi “a” bandi; 166-moddasi uchinchi qismi “a” bandi; 167-moddasi ikkinchi qismi “b” bandi; 168-moddasi uchinchi qismi “b” bandi; 169-moddasi uchinchi qismi “a” bandi; 170-moddasi ikkinchi qismi “a” bandi; 171-moddasi ikkinchi “a” bandi; 176-moddasi ikkinchi “a” bandi; 177-moddasi uchinchi qismi “a” bandi; 185¹-moddasi ikkinchi qismi “a” bandi; 186-moddasi ikkinchi qismi “v” bandi; 186¹-qismi uchinchi qismi “v” bandi; 186²-qismi ikkinchi qismi “v” qismi; 186³-qismi ikkinchi qismi “v” bandi; 188¹-moddasi ikkinchi “b” bandi; 190-moddasi ikkinchi “a” bandi va to'rtinchi “a” bandi va oltinchi qismi “a” bandi; 202-moddasi uchinchi qismi “a” bandi; 209-moddasi ikkinchi qismi “a” bandi; 210-moddasi ikkinchi qismi “a” bandi; 211-moddasi ikkinchi qismi “a” bandi; 212-moddasi ikkinchi qismi “a” bandi; 213-moddasi uchinchi qismi “a” bandi; 214-moddasi uchinchi qismi “a” bandi; 223-moddasi ikkinchi qismi “v” bandi; 227¹-moddasi uchinchi qismi “a” bandi; 228-moddasi ikkinchi qismi “a” bandi; 229⁶-moddasi ikkinchi qismi “v” bandi; 244⁴-moddasi ikkinchi qismi “a” bandi; 244⁶-moddasi ikkinchi qismi “a” bandi; 248-moddasi ikkinchi qismi “q” bandi; 248¹-moddasi ikkinchi qismi “a” bandi; 250¹-moddasi ikkinchi qismi “v” bandi; 251-moddasi ikkinchi qismi “a” bandi; 252-moddasi ikkinchi qismi “a” bandi; 267-moddasi ikkinchi qismi “a” bandi; 277-moddasi uchinchi qismi “a” bandi; 278-moddasi ikkinchi qismi “a” bandi; 278²-moddasi ikkinchi qismi “b” bandi; 278³-moddasi ikkinchi qismi “b” bandi; 278⁴-bandi ikkinchi qismi “v” bandi; 278⁵-moddasi ikkinchi qismi “b” bandi; 278⁶-moddasi ikkinchi qismi “v” bandi; 278⁷-moddasi ikkinchi qismi “b” bandi; 278⁸-moddasi ikkinchi qismi “a” bandi; 278⁹-moddasi uchinchi qismi “a” bandi;

o'ta xavfli retsidivist – 97-moddasi ikkinchi qismi “s” bandi; 104-moddasi uchinchi qismi “v” bandi; 105-moddasi ikkinchi qismi “l” bandi; 112-moddasi ikkinchi qismi “a” bandi; 118-moddasi uchinchi qismi “d” bandi; 119-moddasi uchinchi qismi “d” bandi; 122¹-moddasi uchinchi qismi “a” bandi; 126¹-moddasi beshinchi qismi “z” va sakkizinchi qismi “v” bandlari; 135-moddasi uchinchi qismi “v” bandi; 137-moddasi uchinchi qismi “a” bandi; 164-moddasi to'rtinchi qismi “b” bandi; 165-moddasi uchinchi qismi “b” bandi; 166-moddasi to'rtinchi qismi “b” bandi; 167-moddasi uchinchi qismi “b” bandi; 168-moddasi to'rtinchi qismi “b” bandi; 169-moddasi to'rtinchi qismi “b” bandi; 171-moddasi uchinchi qismi “b” bandi; 188¹-bandi uchinchi qismi “b” bandi; 220-moddasi ikkinchi qismi “a” bandi; 221-moddasi ikkinchi qismi “a” bandi; 222-moddasi ikkinchi qismi “b” bandi; 229⁶-moddasi uchinchi qismi “b” bandi; 247-moddasi

uchinchi qismi “a” bandi; 252-moddasi uchinchi qismi “a” bandi; 267-moddasi uchinchi qismi “a” bandi; 270-moddasi uchinchi qismi “a” bandi; 271-moddasi uchinchi qismi “a” bandi; 273-moddasi to‘rtinchi qismi “a” bandi.

Shuningdek 23 ta holatda JK Maxsus qismi moddalarida ilgari boshqa moddada nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan shaxslar ham alohida kvalifikatsiyaviy belgi sifatida nazarda tutilgan bo‘lib, ularga: JK 104-moddasi uchinchi qismi “b” bandi; 105-moddasi ikkinchi qismi “k” bandi; 118-moddasi ikkinchi qismi “b” bandi; 119-moddasi ikkinchi qismi “b” bandi; 121-moddasi to‘rtinchi qismi “v” bandi; 126¹-moddasi beshinchi qismi “j” bandi, sakkizinchi qismi “b” bandlari; 127-moddasi uchinchi qismi “a” bandi; 128-moddasi uchinchi qismi “a” bandi; 129-moddasi ikkinchi qismi “d” bandi; 131-moddasi to‘rtinchi qismi “b” bandi; 140-moddasi uchinchi qismi “b” bandi; 164-moddasi uchinchi qismi “a” bandi; 210-moddasi ikkinchi qismi “a” bandi; 211-moddasi ikkinchi qismi “a” bandi; 212-moddasi ikkinchi qismi “a” bandi; 213-moddasi uchinchi qismi “a” bandi; 214-moddasi uchinchi qismi “a” bandi; 270-moddasi ikkinchi qismi “a” bandi; 271-moddasi ikkinchi qismi “a” bandi; 273-moddasi uchinchi qismi “a” bandi; 274-moddasi to‘rtinchi qismi “a” bandi; 276-moddasi ikkinchi qismi “b” bandi kiradi.

Retsidiv odatda jinoyatni sodir etgan shaxsning professionallashtirilganini bildirib, shaxsning ma’lum bir jinoiy faoliyat turiga ixtisoslashuvini aks ettiradi.

Retsidiv jinoyatlarni ajratib ko‘rsatish jinoyat subyekting o‘ziga xos xususiyati unga nisbatan davlat ta’siri choralari qo‘llanilgan shaxsning ilgari jinoyat sodir etganligi bilan bog‘liqdir.

JK 34-moddasiga muvofiq, shaxsning ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun sudlanganidan keyin qasddan yangi jinoyat sodir etishi retsidiv jinoyat deb topiladi.

Ilgari hukm qilingan jinoyatiga o‘xshash jinoyat sodir etgan, ushbu Kodeksda alohida ko‘rsatilgan hollarda esa, JK Maxsus qismining boshqa moddalari bilan ham hukm qilingan shaxsning qasddan yangi jinoyat sodir etishi xavfli retsidiv jinoyat deb topiladi.

Shaxsni o‘ta xavfli retsidivist deb topish uchun bir qancha mezonlar mavjud bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi:

Besh yildan kam bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi mumkin bo‘lgan qasddan yangi jinoyat sodir etish, ya’ni:

a) ilgari o‘ta og‘ir jinoyati uchun yoki ikki marta og‘ir jinoyati uchun hukm qilinib, ularning har biri uchun besh yildan kam bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan shaxs tomonidan o‘ta og‘ir jinoyat sodir etilishi;

b) ilgari og‘ir jinoyati uchun ikki marta hukm qilingan yoki oldin-keyinligidan qat’i nazar, og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyatlar uchun ularning har biriga besh yildan kam bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan shaxsning og‘ir jinoyat sodir etishi. Shaxs sudning hukmi bilan o‘ta xavfli retsidivist deb topilishi mumkin.

“Retsidiv” atamasi lotincha retsidivus so‘zidan olingan bo‘lib, “takroran sodir etiluvchi” yoki “qayta yuzaga keluvchi” ma’nosini anglatadi. Retsidiv jinoyat sodir etishning ijtimoiy xavfliroq shakli hisoblanadi”[1; 9-bet.].

Retsidivistlarni jinoyatning maxsus subyekti hisoblanishi masalasida olimlar o‘rtasida turlicha qarashlar mavjud.

M.Qurbonov jinoyat qonunida retsidiv tushunchasiga berilgan ta’rif to‘liq emasligini ta’kidlab, unga quyidagicha ta’rif berishni taklif qilgan:

“Shaxsning ilgari qasddan sodir etilgan jinoyati uchun sudlanganligi, sudlanganlik muddati o‘tib ketmasdan yoki qonunda belgilangan tartibda olib tashlanmasdan turib, qasddan yana jinoyat sodir etishi retsidiv jinoyat deb topiladi”[2; 63-bet.]. Retssidivga oid jinoyat-huquqiy adabiyotlarni o‘rganish bu muammoning juda ko‘p masalalari bo‘yicha yagona fikr yo‘qligini ko‘rsatadi. Ana shunday bahsli masalalardan biri retssidivning tushunchasi va mohiyati haqidagi masaladir. Adabiyotlarda retssidivga berilgan ta’rifga asoslanib, retssidiv haqidagi fikrlarni uchta guruhga bo‘lish mumkin. “Ba’zi olimlar retssidiv deganda, bir shaxs tomonidan ikki yoki undan ortiq jinoyat sodir etilishini (shaxsning avval sodir qilgan jinoyati uchun sudlanganligidan qat’i nazar), ya’ni haqiqatda mavjud retssidivni asos qilib olish kerak”[3; 10-11-b.], deb hisoblaydilar. Boshqa olimlar esa retssidiv tushunchasiga to‘xtalib, “retssidiv deganda avval sudlangan va sudlanganligi bekor qilinmagan yoki olib tashlanmagan shaxs tomonidan jinoyat sodir etilishini tushunadilar”[4; 27-b.].

Ayrim olimlar “faqat avval sudlangan shaxs tomonidan emas, balki jazoni butunlay o‘tab chiqqan shaxs”[5; 23-25-b.] yoki jazoni qisman o‘tagan shaxs tomonidan ham jinoyat sodir etilsa, retssidiv bo‘ladi”[6], deydilar. M.X.Rustamboyevning fikricha, “Retssidiv jinoyat shaxs ilgari sodir qilgan jinoyati uchun sudlanganidan keyin Maxsus qismning boshqa bir moddasida nazarda tutilgan jinoyatni qasddan sodir etishidir. Shu sababli aybning ehtiyotsizlik shaklidagi ikki yoki undan ortiq jinoyatni sodir etish hollari, garchi shaxs ehtiyotsizlik orqasida sodir etgan jinoyati uchun ilgari javobgarlikka tortilgan bo‘lsa-da, retssidiv jinoyat deb topilishi mumkin emas. Mazkur qoida to‘la ravishda ehtiyotsizlik orqasida va qasddan jinoyat sodir etish hollariga ham tegishlidir”[7; 173-b.].

Biz ham M.X.Rustamboyev fikrlariga qo‘shilamiz.

M.Kurbanov ayrim xorijiy davlatlarda retssidiv jinoyatning qonunchilikda belgilanishiga oid tajribani ko‘rib chiqqan bo‘lib[8; 66-68-b.], unda quyidagilar tahlil qilingan:

Yaponiya davlatining jinoyat qonunchiligida bir qancha jinoyatlarni sodir etish boshqa davlatlarning jinoyat qonunchiligidan keskin farq qiladi. Unga ko‘ra, bir qancha jinoyatlar deganda, faqat jinoyatlar jami nazarda tutilgan, takroran jinoyat sodir etish, retssidiv jinoyatlarning normativ huquqiy asosi qonunda ko‘rsatilmagan. Bir shaxs tomonidan bir nechta jinoyatlarni sodir etish, agar ularga nisbatan sudning qonuniy kuchga kirgan qarori bo‘lmasa, jinoyatlar jami deb topiladi deyilgan[9; 54-b.];

Polsha jinoyat qonunchiligida bir qancha jinoyat sodir etish tushunchasi faqat takroran jinoyat sodir etish holatini o‘z ichiga oladi. Bu holat boshqa davlatlar jinoyat qonunchiligida kam uchraydigan jihatdir[10];

Latviya jinoyat qonunchiligiga ko‘ra bir qancha jinoyat tushunchasi ikki yoki undan ortiq jinoiy qilmishlar sodir etilishini nazarda tutadi. Bunda bir qancha jinoyat deb topish quyidagilarni anglatadi:

shaxsning ikki yoki bir qancha jinoyat sodir etishi;

javobgarlikka tortilishi mumkin bo‘lgan bir qancha jinoyat belgilari mavjud bo‘lishi;

yagona jinoiy qasd bilan qamrab olinmagan bir jinoyat sodir etilishi.

Latviya jinoyat qonunchiligi bir qancha jinoyat sodir etishning uch turini ajratadi:

1) takroran jinoyat sodir etish;

2) jinoyatlarning jami;

3) retssidiv jinoyat.

Retsidiv jinoyat deganda shaxsning ilgari sodir etgan jinoyati uchun sudlanganidan keyin basharti shaxsning sudlanganligi olib tashlanmagan yoki tugatilmagan bo'lsa qasddan yangi jinoyat sodir etishi belgilangan. Latviya jinoyat qonunchiligida xavfli va o'ta xavfli retsidiv jinoyatlarning asosi belgilanmagan, ya'ni retsidiv jinoyatlar ijtimoiy xavfli xususiyatiga ko'ra, differensiatsiya qilinmagan[11].

Qozog'iston JKda retsidiv jinoyatlarning uchta turi, ya'ni oddiy retsidiv – shaxsning ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun sudlanganidan keyin qasddan yangi jinoyat sodir etishi; ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun ikki marta ozodlikdan mahrum qilingan shaxsning qasddan yangi jinoyat sodir etishi; ilgari og'ir jinoyat sodir etgan shaxsning qasddan yangi jinoyat sodir etishi-xavfli retsidiv jinoyat sifatida belgilangan[12].

Yuqoridagi davlatlar tajribasi umuman olganda retsidiv jinoyat deganda, shaxsning qasddan qilingan jinoyati uchun sudlanganidan keyin yana qasddan jinoyat sodir etilishi tushunilishini ko'rsatadi.

Mamlakatimiz jinoyat qonunida retsidiv jinoyatning uchta turi, ya'ni oddiy retsidiv, xavfli retsidiv va o'ta xavfli retsidiv mavjud.

Retsidivni turlarga bo'lishning mezoni sodir etilgan jinoyatlar turlari va sudlanganlik soni hisoblanadi.

Shaxsning ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun sudlanganidan keyin qasddan yangi jinoyat sodir etishi oddiy retsidiv jinoyat hisoblanadi.

Oddiy retsidiv JK Maxsus qismi moddalarida kvalifikatsiya qiluvchi belgi sifatida nazarda tutilmagan. Ammo uning mavjudligi jazoni og'irlashtiruvchi holat sifatida JK Umumiy qismida, ya'ni 56-moddaning birinchi qismi "n" bandida nazarda tutilgan. To'g'ri JK 56-moddasining birinchi qismi "n" bandida ilgari ham qasddan jinoyat sodir etgan shaxsning takroran yoki qasddan yangi jinoyat sodir etishi jazoni og'irlashtiruvchi holat sifatida nazarda tutilgan bo'lib, aynan retsidiv ko'rsatilmagan. Ammo, ilgari qasddan jinoyat sodir etgan shaxsning qasddan yangi jinoyat sodir etishini retsidiv sifatida nazarda tutilgan deb, hisoblaymiz. Sud amaliyoti ham bunga misol bo'la oladi. Jumladan, muqaddam, Toshkent shahar sobiq Akmal Ikromov (hozirgi Uchtepa) tuman sudining 1998-yil 24-dekabrda hukmiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi JK 169-moddasi ikkinchi qismi "v" bandi bilan 3-yil ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan, Toshkent shahar sobiq Akmal Ikromov (hozirgi Uchtepa) tuman sudining 1999-yil 23-oktyabrda hukmiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi JK 169-moddasi uchinchi qismi "a" bandi bilan 6-yilga ozodlikdan mahrum qilingan, jinoyat ishlari bo'yicha Uchtepa tuman sudining 2008-yil 8-sentyabrda hukmiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi JK 164-moddasi uchinchi qismi "a" bandi va 277-moddasi ikkinchi qismi "b,v" bandlari bilan JK 59, 60, 61-moddalari tartibida 11-yilga ozodlikdan mahrum qilingan shaxs 2024-yil 30-avgust kuni tekshirilganida uning yonidan sud-kimyoviy ekspertiza, xulosasiga ko'ra giyohvand modda diatsetilmorfin mavjud bo'lib, bu modda "geroin" deb atalishi, geroinning og'irligi 1,03 grammga tengligi aniqlangan. Uning qilmishi JK 276-moddasi ikkinchi qismining "a" bandi, ya'ni ko'p miqdorda giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay, qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, egallash, tashish yoki jo'natish sifatida baholangan. Sud, ushbu shaxsga jazo tayinlashda jazoni og'irlashtiruvchi holatlar sifatida ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun sudlangan bo'lsa-da, qasddan yangi jinoyatni past niyatlarda sodir etganligini inobatga olib, jazo tayinlagan[13]. Oddiy retsidiv sifatida, masalan ilgari o'g'rilik qilgani (JK 169-moddasi

ikkinchi qismi “a” bandida nazarda tutilgan jinoyat) uchun sudlangan shaxsning, giyohvandlik vositasini giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlab ko'p bo'lmagan miqdorda qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoki jo'natish, shuningdek ularni ko'p bo'lmagan miqdorda qonunga xilof ravishda o'tkazish (JK 273-moddasi birinchi qismi) jinoyatini sodir qilganligini ko'rsatishi mumkin.

Ilgari hukm qilingan jinoyatiga o'xshash jinoyat sodir etgan, JK alohida ko'rsatilgan hollarda esa, Maxsus qismning boshqa moddalari bilan ham hukm qilingan shaxsning qasddan yangi jinoyat sodir etishi xavfli retsidiv jinoyat hisoblanadi. Xavfli retsidiv JK Maxsus qismi normalarida kvalifikatsiya qiluvchi belgi sifatida aks ettiriladi. Xavfli retsidivning oddiy retsidivdan farqi, bunda har qanday jinoyat sodir qilganlik emas, balki aynan ilgari qilgan jinoyatiga o'xshash jinoyatni sodir qilganlik nazarda tutiladi. Bu holat shaxsning ma'lum bir jinoiy faoliyat turiga ixtisoslashganligini ko'rsatadi. O'ta xavfli retsidiv esa xavfli retsidivdan birinchidan, jinoyat turlari, ya'ni og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarning sodir etilganligi bilan ikkinchidan, sodir etilgan jinoyatlar soni bilan farqlanadi. O'ta xavfli retsidiv bo'lishi uchun, ilgari o'ta og'ir jinoyati uchun yoki ikki marta og'ir jinoyati uchun hukm qilinib, ularning har biri uchun besh yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan shaxs tomonidan o'ta og'ir jinoyat sodir etilishi yoki ilgari og'ir jinoyati uchun ikki marta hukm qilingan yoki oldin-keyinligidan qat'i nazar, og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlar uchun ularning har biriga besh yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan shaxsning og'ir jinoyat sodir etishi kerak.

Adabiyotlarda jinoyat qonunidagi retsidiv turlarini boshqacha tasniflash bo'yicha ham qarashlar mavjud. Jumladan, sodir qilingan jinoyatning avvalgi jinoyatga o'xshash yoki o'xshash emasligiga qarab umumiy va maxsus retsidiv tushunchasi qo'llaniladi. Bunda umumiy retsidiv deganda, qasddan jinoyat sodir qilganligi uchun sudlangan shaxsning qasddan har qanday boshqa jinoyat sodir qilishi umumiy retsidiv deyiladi. Maxsus retsidiv esa, qasddan jinoyat sodir qilganligi uchun sudlangan shaxsning yana avval sodir qilgan jinoyatiga o'xshash jinoyatni qasddan sodir etishini nazarda tutadi[14; 21-24-b.].

Sodir etilgan jinoyatlar soniga qarab, oddiy (bir marta sudlangan) va murakkab (bir necha marotaba sudlanganlik) retsidivga ajratiladi[15; 105-b, 168-172-b., 270-273-b.; 38-43-b.].

Shuningdek, jinoyatni qayerda sodir etilganligiga qarab ham farqlash mavjud bo'lib, ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish muassasalarida qasddan sodir etilgan jinoyatlarni penitensiar retsidivga bo'lishadi[16; 734-737-b.]. Umuman olganda yuqoridagi qarashlar, jinoyat qonunida belgilangan retsidiv turlariga zid kelmaydi, balki ularni turlicha talqin qilish ifodasidir.

Retsidiv jinoyat sodir etgan shaxsni jinoyat subyektini tavsiflovchi belgi sifatida tahlil qilish bo'yicha bir qancha yondashuvlar mavjud.

Q.Abdurasulova fikricha, “shunday qilib, kvalifikatsiyaviy (alohida kvalifikatsiyaviy) jinoyat tarkiblarida retsidivist muqobil ravishda ham, nomuqobil ravishda ham maxsus subyekt sifatida nazarda tutilishi mumkin Ammo, ikkala holatda ham qonun chiqaruvchi tomonidan, qonunda subyektning bizni qiziqtirgan maxsus alomatlarini ko'rsatgan holda, retsidiv tarkibning konstitutiv alomati sifatida qayd etilgan normalardan farqli o'laroq, ularga mazkur jinoyat uchun jinoiy javobgarlikning kelib chiqishiga ta'sir ko'rsatuvchi ahamiyatga

ega, deb qaralmaydi. Mazkur holatlarda maxsus subyektning jinoyat sodir etganligi aybdorning javobgarligini kuchaytiradi, xolos"[17; 57-b.].

N.F.Kuznetsova va I.M.Tyajkovalar qonunchilikda retsidiv tushunchasida jinoyatchi emas, jinoyat nazarda tutganligi sababli ham, retsidivga jinoyat subyektini tavsiflovchi belgi sifatida qarash kerak emas[18; 327-b.], degan fikrni bildirishgan.

Biz bu fikrga qo'shilmaymiz, chunki retsidivlik, uni sodir qilgan shaxsda jinoyat qilishning qaytalanishi, faoliyat turiga aylanishini ko'rsatadi va bu o'z navbatida shaxsning ijtimoiy xavfliligini oshiradigan mezonlardan hisoblanadi. Shu sababdan ham, retsidivlik aynan jinoyat subyektini tavsiflovchi belgi hisoblanadi.

O'rganilgan 500 ta hukmlarning 41,7%ni ilgari jinoyat sodir etganligi bilan bog'liq fakultativ belgilar tashkil qilishini, bunda takroran jinoyat sodir etilganligi 9 %ni; sudlangan shaxs tomonidan yana jinoyat sodir etilganligi 20,5 % ni; ilgari sudlamaganlik holati 70,5%ni tashkil qilganligini ko'rsatib o'tgan edik. Bunda takroriylik va sudlanganlik jazoni og'irlashtiruvchi holat sifatida baholangan bo'lsa, ilgari sudlanmagan shaxs tomonidan jinoyat sodir qilinishi jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida baholangan.

Garchi, JK 55-moddasida jinoyatni birinchi marta sodir qilganlik yoki ilgari sudlanmaganlik jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida nazarda tutilmagan bo'lsada, sudlar o'rganilgan ishlarning deyarli barchasida ushbu holatni jazoni yengillashtiruvchi holat, deb baholashgan. O'rganilgan jinoyat ishlarida sudlanmaganlikni jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida baholangan holatlarning jazo tayinlashga ta'siri tahlil qilindi. Bunda, 48% holatda JK 57-moddasi qo'llanib, JK Maxsus qismi moddasida nazarda tutilgan mazkur jinoyat uchun belgilangan jazoning eng kam qismidan ham kamroq yoki shu moddada nazarda tutilmagan boshqa yengilroq turdagi jazoni tayinlangan; 44% holatda sanksiya doirasida yengilroq turdagi jazo tayinlangan, 4% holatda JK 72-moddasida nazarda tutilgan shartli hukm qo'llanilgan, 4% holatda JK 70-moddasiga asosan shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotishi munosabati bilan shaxs jazodan ozod qilingan. Ko'rinib turibdiki, jazoni yengillashtiruvchi holatlarni qo'llashdagi haddan ortiq yengilliklar, ayrim hollarda sudlar tomonidan shaxslarning qilmishiga nisbatan nomutanosib jazolar tayinlashga ham olib kelishi mumkin. Shu sababdan ham, jazoni yengillashtiruvchi holatlar mavjudligida jazo tayinlash masalasi bo'yicha qandaydir mezonlar bo'lishi kerak. Biz bu borada I.Muslimovning "Sudlar tomonidan jazoni yengillashtiruvchi holatlarni hisobga olgan holda jazo tayinlash muammolari" mavzusidagi tadqiqotida keltirilgan JK 55-moddasida nazarda tutilgan yengillashtiruvchi holatlar mavjud bo'lgan va JK 56-moddasida nazarda tutilgan og'irlashtiruvchi holatlar mavjud bo'lmaganida sudlar tomonidan jazo tayinlashga nisbatan cheklov belgilash haqidagi fikrlariga[19; 21-22-b.] qo'shilamiz.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Умидуллаев Ш. Рецидив жиноят тушунчаси ва рецидив жиноят учун жавобгарликнинг хусусиятлари. -Т. Янги аср авлоди. 2001. –Б.9.
2. Kurbanov M. M. Ba'zi xorijiy mamlakatlar jinoyat qonunchiligida retsidiv jinoyatlar uchun javobgarlikning o'ziga xos xususiyatlari. Journal of Law Research. 2025, 10vol., issue2/3, pp.60-71. –Б.63
3. Рецидивная преступность: понятие и криминологическая характеристика / Ниедре А.М. и др. –Рига, 1993. –С.10-11.
4. Возжанникова И. Г. Рецидив как вид множественности преступлений: монография / отв. ред. А.И. Чучаев. — М., 2014.

5. Грибанов Е. В. О социокультурных характеристиках криминальной субкультуры // Борьба с преступностью: теория и практика: материалы II Международной научно-практической конференции. Могилев, 27 февраля 2014 г. — Могилев, 2014.
6. Симоненко А. В. Система ценностных ориентаций в механизме преступного поведения личности // Вестник Волгоградской академии МВД России. — 2012. — No 1
7. Рустамбоев М.Х. Ўзбекистон Республикаси Жиноят ҳуқуқи курси. Т. 2010. Т. 2. 173 бет.
8. Kurbanov M. M. Ba'zi xorijiy mamlakatlar jinoyat qonunchiligida retsidiv jinoyatlar uchun javobgarlikning o'ziga xos xususiyatlari. urnal of Law Research. 2025, 10vol., issue2/3, pp.60-71. Б.66-68
9. Уголовный кодекс Японии. Науч. редактирование и предисловие докт. юрид. наук, проф. А. И. Коробеева. –СПб.: Юридический центр Пресс, 2002. –54с.
10. Уголовный кодекс Польской республики на русском языке. <https://prawnikpoznanski.pl/ru/>
11. Уголовный кодекс Латвийской Республики / науч. ред. и вступ. статья канд. юрид. наук А. И. Лукошева и канд. юрид. наук Э. А. Саркисова. Перевод с латышского канд. юрид. наук А. И. Лукошева. –СПб.: Юридический центр Пресс, 2001 –313 с.
12. Уголовный кодекс Республики Казахстан. <https://adilet.zan.kz/rus/docs/K1400000226>
13. Тошкент шаҳар жиноят ишлари бўйича ХХ туман судининг 1-1007-XXX-сонли жиноят иши бўйича ҳукми. <https://public.sud.uz/report/CRIMINAL>
14. Уголовное право России. Общая часть : учебник / под ред. Ф. Р. Сундукова, И. А. Тарханова. 3-е изд., перераб. и доп. М., 2009. 751 с.; Южанин В.Е. Парадоксы законодательства об ответственности за рецидив преступлений // Человек: преступление и наказание. 2011. № 1 (72). С. 21-24.
15. Павлов В. Г. Квалификация преступлений со специальным субъектом. СПб., 2011. С. 105.; Пилукова М.В. Проблемы назначения наказания при рецидиве преступлений // Современные проблемы гуманитарных и естественных наук: материалы 25 Междунар. науч.-практ. конф. М.: Науч.-информ. изд. центр «Институт стратегических исследований», 2015. С. 168-172.; Манасян Т.В. Проблемы размера и назначения наказаний при рецидиве преступлений // Актуальные проблемы совершенствования законодательства и правоприменения: материалы 6 Междунар. науч.-практ. конф. Уфа: Евраз. науч.- исслед. ин-т проблем права, 2016. С. 270-273.; Чернов А.В., Габеев С.В. О назначении наказания при рецидиве преступлений // Уголовный закон Российской Федерации: проблемы правоприменения и перспективы совершенствования: материалы Межвуз. науч.-практ. конф. / гл. ред. П.А. Капустюк; отв. ред. Р.А. Забавко. Иркутск: Восточно-Сибирский ин-т Мин-ва внутренних дел Рос. Федерации, 2017. С. 38-43.
16. Армашова А.В. Проблемы рецидива преступлений и ответственности за него по уголовному праву России: автореф. дис. ... канд. юрид. наук. Рязань, 2006. 27 с.; Плаксина В.С., Салтыков Н.А. Назначение наказания при различных видах рецидива преступлений // Аллея науки. 2018. Т. 3. № 6 (22). С. 734-737.
17. Абдурасулова Қ. Жиноятнинг махсус субъекти. Жиноятнинг махсус субъекти. Уқув-қўлланма. -Т.: ТДЮИ нашриёти, 2005. Б. 57.
18. Кузнецова Н.В., Тяжкова И.М. Курс уголовного права. Общая часть. Том 1. Учение о преступлении. С. 327.
19. Муслимов И. Судлар томонидан жазони енгиллаштирувчи ҳолатларни ҳисобга олган ҳолда жазо тайинлаш муаммолари. Юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент.ТДЮУ. 2025. Б.21-22.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/11 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).